

**ALTRUISTIK XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI VA UNI JAMIYATNING BIR BO'G'INI
BO'LGAN O'SMIRLARDA NAMOYON BO'LISHI**

**NORQULOVA SEVARA O'ROZ QIZI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA
FAKULTETI TALABASI**

E-mail: Sevaranorqulova973@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada altruizm so'zining ma'nosi, altruizmning turlari, altruistik xulq-atvor tushunchasi, uning jamiyatda namoyon bo'lish sabablari, usullari haqida so'z yuritiladi. Shaxsda altruistik xulqning shakllanishiga emotsional intellektning ta'siri tahlil qilinib, jadval asosida izohlangan. Ushbu maqola shu sohadagi mustaqil tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR

Altruizm, psixologiya, empatiya, ijtimoiy-axloqiy sifatlar, jamiyat, tabiiy, ijtimoiy altruizm, egoistik, mavhum

**THE CONCEPT OF ALTRUISTIC BEHAVIOR AND ITS MANIFESTATION IN
ADOLESCENTS, WHO ARE A PART OF SOCIETY**

NORQULOVA SEVARA O'ROZ QIZI

Student of the Faculty of Pedagogy, Karshi State University

E-mail: Sevaranorqulova973@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the meaning of the word altruism, types of altruism, the concept of altruistic behavior, and its causes and methods of manifestation in society. The influence of emotional intelligence on the formation of altruistic behavior in an individual is analyzed and explained based on a table. This article may be useful for independent researchers and specialists in this field.

KEYWORDS

Altruism, psychology, empathy, socio-moral qualities, society, natural altruism, social altruism, egoistic, abstract

**ПОНЯТИЕ АЛЬТРУИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЕ У
ПОДРОСТКОВ, ЯВЛЯЮЩИХСЯ ОДНОЙ ИЗ СОСТАВНЫХ ЧАСТЕЙ ОБЩЕСТВА**

НОРКУЛОВА СЕВАРА УРОЗ КЫЗЫ

Студентка Педагогического факультета Каршинского государственного университета

E-mail: Sevaranorqulova973@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение слова «альтруизм», виды альтруизма, понятие альтруистического поведения, а также причины и методы его проявления в обществе. Анализируется и объясняется на основе таблицы влияние эмоционального интеллекта на

формирование альтруистического поведения у личности. Эта статья может быть полезна для независимых исследователей и специалистов в данной области.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Альтруизм, психология, эмпатия, социально-нравственные качества, общество, природный альтруизм, социальный альтруизм, эгоистический, абстрактный

KIRISH

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida fanlar tizimida aynan psixologiya fani muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Insonning xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar odamlarni doimo qiziqtirib keladi. Inson psixologiyasini bilishda, o'z imkoniyatini, qobiliyatini anglay olish, turli o'zgarishlarga psixologik tayyor turish, atroflicha fikrlash va tafakkur qilish, yuz berayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri anglash qobiliyatini shakllantirish muammolari ilgari suriladi. Shunga asosan, zamonaviy hayot har bir odamdan o'zining ichki imkoniyatlarini baholashni, psixologik bilimlar asosida boshqa odamlarning psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Xo'sh, aslida altruizm tushunchasi nima? Dastlab, shu haqida ma'lumotlar keltiramiz.

Altruizm tushunchasi va uning turlari

Altruizm - lotincha so'z bo'lib, "alter" - boshqa, boshqalar, ya'ni boshqa insonlarning farovon yashashi uchun beg'araz g'amxo'rlik bilan bog'liq faoliyatni bildiruvchi atama hisoblanadi. Altruizmning turlari ko'pgina tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida bir necha turga bo'linishini maqolada izoblab beramiz.

Zamonaviy tadqiqotlarda altruizm konsepsiyasi biosotsial va psixologik nuqtai nazardan o'rganilayotgani ko'pchilikka ma'lum. Shuningdek, V.R. Keyseleman ishlab chiqqan altruizm modeli borki, u turlicha xulq-atvor shakllarini tavsiflab beradi va altruizmni 2 turga ajratadi. Ular quyidagicha izohlanadi:

1. Tabiiy altruizm

2. Ijtimoiy altruizm

V.R. Keyselemaning ishlab chiqqan modeliga ko'ra, tabiiy altruizm - qarindosh, ota-ona altruizmi, jinsiy, o'zaro, darajali va koalitsiyaviy turlariga asoslanadi, lekin ijtimoiy altruizmi esa haqiqiy va nevrotik turlarga asoslanadi. Bundan tashqari boshqa shu sohadagi tadqiqotchilar ham turli izlanishlar olib borib, altruizmning boshqa turlarini ham kashf etishgan. Bulardan yana biri V.E. Yakimovanning izlanishlari natijasi hisoblanadi. V.E. Yakimovanning tadqiqotlariga ko'ra altruizmning quyidagi turlari mavjud:

1. Empatik

2. Egoistik

3. Mavhum

4. kontra-adaptiv

Yuqorida aytib o'tganimizdek, altruizmning turlari tadqiqotchilarning ishlab chiqqan modellari asosida bir nechta turlarga bo'linadi. Biz ushbu maqolada eng ommaviy turlarini keltirdik. Altruizm

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

insonning ichki olami bilan bog'liq bo'lgan va uning tashqi xulq-atvorida aks etuvchi ijtimoiy-axloqiy sifatlardan biri hisoblanib, yoshlardagi empatiya va irodaviy sifatlarning barqaror rivojlanganligi ulardagi altruistik xulq-atvoriga asos bo'lib xizmat qiladi. Endi har xil shaxsda altruistik xulqning shakllanishiga emotsional intellektning ta'siri qanday bo'lishini jadval asosida tahlil qilamiz.

1-Jadval

SHAXSDA ALTRUISTIK XULQNING SHAKLLANISHIGA EMOTSIONAL INTELEKTNING TA'SIRI (N=472)

Guruhlar	EBo	EB	O'M	E	BET
Ilk o'spirinlardagi altruistik xulq	0,11	0.36**	0.06	0.54**	-0.03
O'smirlardagi altruistik xulq	0.02	0.01	0.45**	0.29*	-0.02
Talabalardagi altruistik xulq	0.27*	0.42**	0.12	0.43**	0.23

Ushbu jadval uchun izoh bilan tanishing;

Demak, * $p < 0.05$; $p < 0.01$

EBo-emotsiyalarni boshqarish; EB-emotsional bilimdonlik; O'M-o'z-o'ziga motivatsiya berish; E-empatiya; BET-boshqalarning emotsiyalarini tushunish.

Tadqiqotga ko'ra o'smirlardagi xulqning aks etish darajasi shaxsdagi o'z-o'ziga motivatsiya berish, empatiya bilan statistik jihatdan bog'liqligi aniqlandi. O'smirlik davrida emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish shkalalari orasida bog'liqlik aniqlanmadi. Lekin o'smirlarda altruistik xulqning aks etishida o'z-o'ziga motivatsiya berish hissi ijobiy ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, yoshlarda muvaffaqiyatga erishish hissi va o'zini biror bir qahramonona holatda ko'rish istagi yuqori bo'lar ekan. Ushbu holat hayotda faqat eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishish, hammadan eng yaxshisi bo'lish kabi istaklar bilan bog'liqligi isbotlandi.

O'smirlarda o'ziga motivatsiya berishning ustun ekanligi – bu ularning maqsadlarini aniq belgilashlari va faoliyatlarida imkon qadar muvaffaqiyatga, yaxshi natijaga intilishlari, faoliyatlarini oqilona rejalashtirishlari bilan ochiq qoladi. Qolaversa, bunday shaxsning kognitiv aqliy salohiyatida muvaffaqiyatli bo'ladi va har qanday yangi ish boshlashdan avval ular mustaqil kuchiga va samarali natijaga erishishiga

ishonadi. Ular butun diqqatlarini ishi va uning samarali natijasiga e'tiborini qaratgan bo'ladilar va ijobiy emotsiyalarni namoyon qiladilar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, odamda altruistik xulq rivojlanishida hissiy intellekt muhim ahamiyatga ega bo'lib, emotsional bilimdonlik ilk o'spirinlarda, emotsiyalarni boshqarish talabalarda, o'z-o'ziga motivatsiya berish o'smirlarda, asosiy xarakterga ega ekanligi aniqlangan. Hammamizga ma'lumki, o'smirlarda guruhda ijtimoiy mavqeyini tasdiqlash bilan bog'liq istaklar kuchli bo'ladi. O'ziga motivatsiya berish esa albatta ijobiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi, o'smirlik davridagi eng ijobiy emotsiyalar «Men»ni jamiyat uchun «ijtimoiy foydali yo'l» bilan tasdiqlash hissi hamda

ijtimoiy ma'qullangan kutuvlar asosida harakatlanish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lganligi bois mazkur holat ularni atrofda qilarga beg'araz yordam berishda sog'lom raqobatni yuzaga keltirishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Deviant xulq-atvor psixologiyasi:O'quv qo'llanma.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIVAkademiyasi,2013.-143b.
- 2.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Altruizm>
- 3.<https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davrida-altruistik-xususiyatlarning-psixologik-ahamiyati>
- 4.Кейсельман В.Р. (Дорожкин). Грани альтруизма. – Киев 2016. – 320 с.
- 5.Якимова Е.В. Феномен альтруизма: новые аспекты и современные аналитические тенденции //
- 6.Psixologiya ilmiy jurnali N_2,2023.Atabayeva Nargis Batirovna.DSc.Altruizm va emotsional intellekt